Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo‘jaev Xadyatillo Billoxon o‘g‘li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O‘zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budget siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag‘allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari.....	1690
O‘rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Budget tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po‘latov Tirkash Sotiboldiyevich	
“Ichki iste‘mol uchun qayta ishlash” bojxona protseduralarini O‘zbekiston sharoitida qo‘llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O‘zbekiston respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfazovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo‘llari va strategiyalar	1714
Mo‘minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklastar tizimi rivojlantirish yo‘nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro‘ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo‘l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo‘lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko‘chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O‘zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A‘zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo‘llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to‘qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida o‘z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	



Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budget daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlavonjon Usarovich	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich	
Mathematical statistics in biology and medicine	1826
Vokhidov Alikul, Orazbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmina, Turotova Dildora	
"Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar: O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar	1833
Nasretdinov Nodir Tulqinovich	
Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari	1837
Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov	
Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1843
Iminov Farxodjon Tohirjonovich	
Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане.....	1848
Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна	
Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход	1858
Мадраимова Согдиана Равильевна	
Sayyohlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari	1864
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Sanoat korxonalarida inqozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	1869
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish	1885
To'g'onov Ibrohimxo'ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	1889
Darxanova Umida	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniring konsepsiyasini mustahkamlashni takomillashtirish	1895
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekistonda aholi farovonligini ta'minlash yo'llari	1902
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
"Uzsuvta'minot" aj tizim tashkilotlarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun hisob tizimining xususiyatlari.....	1906
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich	
Ways to develop and stimulate innovative activity of the enterprise	1909
U. Yusupov, Ye Junjiye	
Трансформация мировой торговли: путь от протекционизма к свободному рынку на примере узбекистана.....	1914
Олимова Насиба Акмаловна, Камилова Наргиза Абдукахоровна	



Xalqaro tajribada mulkni qayta baholash metodlari: O'zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlari.....	1920
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
O'zbekistonda professional futbol klublarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish	1924
Mirzayev Ulug'bek Abdusattarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari.....	1931
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion rivojlanish tendensiyalari.....	1937
Haqberdiyev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida biznes ekotizimini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1944
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
The impact of intensive urbanization in tashkent on economic stability, environmental conditions, and demographic processes.....	1949
Khandamirdzhanova B.M., Shoislomova Komila Batyrovna	
Barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	1956
Maksudova Shaxzoda	
Ish bilan bandlik darajasiga makroiqtisodiy omillar: aholi jon boshiga yaim, inflatsiya, oliy ta'lim bilan qoplanish darajasining ta'sirini baholash	1961
Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'li	
Mintaqaviy iqtisodiyotlarda kapital qo'yimalarning determinantlari: qoraqalpog'istonda aholi va byudjet daromadlarini ekonometrik o'rganish.....	1966
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgaziyevich, Kengesbayeva Suliuxan Maxsetbay qizi, Kengesov Diyorbek Umidovich	
Klasterlash asosida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning muhim xususiyatlari	1970
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Rabbimov Abror Mehriddin o'g'li	
Bugungi kunda inson kapitalidan to'g'ri foydalanish	1975
Dushaboyev Lazizjon Baxrom o'g'li	
Urban aglomeratsiyalar sharoitida yer osti inshootlariga ta'sir etuvchi geologik xavflarni kompleks baholash.....	1983
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik indikatorlarini ishlab chiqish va baholash usullari.....	1987
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
Роль кооперации и агрокластеров в повышении эффективности мясомолочного производства	1991
Абдуллаев Жасурбек Абдижабборович	
Markaziy osiyo davlatlarida qishloq xo'jaligi sektorining rivojlanishi va uning iqtisodiy ahamiyati	1996
Voxidova Mehri Xasanovna, Xolxo'jayev Eldorxo'ja G'olibjon o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjat aylanishining samaradorligini rivojlantirish	2002
Baxtiyorova Dildora	
Moliyaviy institutlarning yashil kredit siyosati	2008
Sotivoldiyev Asadulloh Axadjon o'g'li	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini innovatsion boshqarish usullari	2012
Ismatov Olimjon Aminjonovich	
Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishning muommolarini mahallabay ishlash tizimini takomillashtirish	2016
Abdualimov Xabibullo Ne'matullayevich	
Axborot ochiqqligining korporativ boshqaruvdagi roli va investorlarni jalb qilishdagi ta'siri	2023
Shukurova Lilolaxon Darvinxo'ja qizi, Shukurov Jakhongir Sa'dulla o'g'li	
Экономические основы развития и повышения эффективности торговых услуг в узбекистане	2027
Мусурмонова Мухлиса Самандар кизи	
Ijtimoiy sohani rivojlantirishda davlat budjet xarajatlaridan samarali foydalanish yo'llari	2032
Ajibayeva Raiiya Maxsutovna	



Avtomobil chegara bojxona postlarida bojxona ma'murchiligini yanada takomillashtirish yo'llari.....	2036
Raxmonova Nargiza Rashidovna	
К вопросу о подготовке кадров для индустрии туризма и гостеприимства Республики Узбекистан.....	2042
Хисамутдинова Альбина Фанисовна	
Tijorat banklarida daromad va xarajatlarning tahlili va auditini takomillashtirish	2047
Mirzayev Faxriddin Sobirjonovich	
Yaponiya davlat xizmati tizimi: tuzilishi, ishga qabul qilish va kadrlar boshqaruvining mexanizmlari.....	2051
Abdulkarimov O'tkir Xamzaevich	
Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun investitsiyalar kiritish.....	2055
Musoyev Behruz Shaxobjon o'g'li	
Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning moliyaviy mexanizmlari.....	2060
Skuybida Yevgeniy Vladimirovich	
Mintaqaning investitsion imkoniyatlarini oshirishda xorij tajribasi.....	2065
Masharipov Sardorbek Farxadovich	
Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) islohotlari va amaliyotdagi muammolar.....	2070
Aipova Iroda Ikromovna	
Yashil moliyalashtirish va uning yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi roli	2076
Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich	
Prudensial nazorat mohiyati, zarurligi va uni amaliy ahamiyati	2081
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
Banklararo to'lov tizimi mexanizmini rivojlantirish istiqbollari.....	2085
Abduraximova Feruza Alisherovna	
Banklarda aholi depozitlarini xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish	2092
Azizova Gulrux Xolmamat qizi	
Electricity demand forecasting in case of Uzbekistan	2098
Otabaev Yodgorbek Marim o'g'li	
Kredit-modul muhitida talabalar mustaqil ishlarining tashkiliy tuzilmasi.....	2105
Iskandar Allazov	
Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi ko'rsatkichlar tahlili hamda samaradorlikni ekonometrik modellashtirishning obyektiv zarurligi	2110
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Saburov Javohir Kaxramon o'g'li	
O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda hududiy resurslardan samarali foydalanish yo'llari	2123
Raximova Dilfuza Mirzakasimovna	
Цифровая трансформация производственных предприятий: опыт внедрения SAP S/4HANA в uzauto motors	2130
Юсупов Равшанбек Аминбаевич, Хусаинов Фолиб Рашидович	
Xorazm viloyati iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustuvor vazifalari.....	2137
Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
Elektr energiyasini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va uning muqobil manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish yo'llari	2141
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
Jahon moliya tizimida kriptovalyutalarning roli: evolyutsiya va rivojlanish dinamikasi.....	2146
Jo'rayev Yahyo Ikromjon o'g'li	
Moliyaviy marketing va fond bozori: qanday qilib investorlar ishonchini yo'naltirish mumkin?.....	2150
Mirmahmudova Nozima Xusniddinovna	
Comparative literature, linguistics, and translation studies: convergences and contrasts.....	2154
Bukhara State Technical University	
Tijorat banklarida dividend siyosatining joriy holati.....	2159
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna	
Oilaviy tadbirkorlik doirasida gulchilikni rivojlantirish	2165
Nurmatova Dilola Dilshod qizi	



Factors for developing innovative infrastructure in Uzbekistan.....	2170
Uzaydullaev Sherzod Shukurullaevich	
Raqamli transformatsiya va boshqaruvda avtomatlashtirish.....	2181
Rasulova Nargiza Shavkatovna	
Budjet tashkilotlarda asosiy vositalarning eskirishi va unga qo'yiladigan chora tadbirlar.....	2184
Shakarov Qulmat Ashirovich	
O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning istiqbolli yo'llari.....	2189
Javliyeva Gulasal Bahridin qizi	
Islomiy moliyaviy instrumentlar va ularni hisobga olishning tijorat banklari buxgalteriyasiga ta'siri.....	2195
Valiyeva Oydin Orifjonova	
Estetik va lingvistik komponentlarning integratsiyasi: badiiy matnlar asosida til o'rgatish tajribalari.....	2201
Salomova Malika Zoxirovna	
Til o'rgatishda noverbal kommunikatsiyaning psixolingvistik asoslari.....	2206
Kazakova Dilor Gaffarovna	
Adabiy matnlar orqali til o'rgatish: ingliz adabiyotidagi obrazlar asosida til kompetensiyasini	2210
Shoyimqulova Mahzuna Shavkatovna	
Iste'molchilar motivatsiyasida afzal ko'rish nazariyalaridan foydalanish	2214
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
Davlat xaridlari tizimida shaffoflikni ta'minlash orqali budjet samaradorligini oshirish yo'llari.....	2220
Turganbaev Nursultan Bayram uli	
Hududiy notenglikni kamaytirishda ta'lim resurslarini boshqarish strategiyasi	2224
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna	
Adapting Global Project Management Frameworks for Innovation in Transitional Economies: A Case Study of Uzbekistan's Textile Industry.....	2229
Qingming Dong	
Тенденции развития финансового рынка в узбекистане.....	2234
Мадреимов Айтбай Оразбаевич, Мамутов Кутлымурат Зафар улы	
Экономическая сущность монетарной политики	2239
Шомуродов Равшан Турсункулович	
Mintaqada turizm sanoatini modernizatsiyalashning o'ziga xos xususiyatlari	2247
Salayeva Dilrabo Abdullayevna	
Тенденции и перспективы развития международного туризма в узбекистане.....	2251
Мамаризоев Жахонгир Исохонович, Тураева Сурия Тельмановна	
LMA va LSTA tajribasi asosida o'zbekistonda sindikatlashtirilgan kreditlash tizimini rivojlantirish yo'llari	2256
G'ofurov Javohir Jahongir o'g'li	
Namangan viloyatidagi kichik biznes subyektlari faoliyatini innovatsion rivojlantirish.....	2261
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li, Rasulov Ulug'bek Obidjon o'g'li	
Milliy iqtisodiyotni barqaror o'sish sharoitida hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda hududlarning moliyaviy salohiyatini mustahkamlash masalalari.....	2266
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li	
Приоритетные направления дальнейшего развития экономики путем совершенствования операций с ценными бумагами акционерных обществ	2271
Ботиров Азамат Ахмедович, Маликова Угиллой Абдурасуловна	
Barqaror iqtisodiy rivojlanishda moliyaviy inkluzivlikning rolini kuchaytirish; resurslar taqsimotining tizimli yondashuvi	2276
Xomidova Kamola G'olib qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	2280
Burxanov Bahodir Baxtiyorxodjaevich	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Burxanov Bahodir Baxtiyorxodjaevich

O'zbekiston Respublikasi

IIV MOMB MTO'M katta mutaxassis-metodisti,

Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil tadqiqotchisi

e-mail: bahodir.burxanov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ilk elektron kitoblarning kashf etilishi, ularning rivojlanish tarixi, elektron kitoblarning raqamli kutubxonalar va axborot-kutubxona faoliyatining taraqqiy etishiga, shuningdek, kitobxonlik madaniyatining yuksalishiga ko'rsatgan ta'siri haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli kutubxona, elektron kitob, raqamli qurilma, kitob mutolaasi, axborot-kutubxona faoliyati, elektron nashr, kitobxonlik madaniyati, texnologik innovatsiyalar.

Abstract: The article provides information about the discovery of the first e-books, the history of their development, the progress of digital libraries and information and library activities, the impact they have shown on the rise of reading culture.

Key words: digital library, e-book, digital device, book reading, library and information activity, electronic publication, reading culture, technological innovations.

Аннотация: В статье представлены сведения об изобретении первых электронных книг, истории их развития, а также о влиянии электронных книг на эволюцию цифровых библиотек и библиотечно-информационной деятельности, а также на повышение культуры чтения.

Ключевые слова: цифровая библиотека, электронная книга, цифровое устройство, чтение книг, библиотечно-информационная деятельность, электронное издание, культура чтения, технологические инновации.

KIRISH

Hozirgi zamonda raqamli texnologiyalar har bir sohaga o'z ta'sirini ko'rsatib, aql bovar qilmaydigan o'zgarish va yangiliklarni inson hayotiga olib kirmoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyot, sanoat, ijtimoiy himoya, ta'lim, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, mudofaa, turizm va boshqa sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish odatiy holga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev: "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda...", deb ta'kidlagan edilar [1].

O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston-2030" rivojlanish strategiyasi ishlab chiqilgan. Strategiyaning maqsadi – raqamli texnologiyalar sohasida milliy ilmiy-tadqiqot va rivojlantirish faoliyatlarini tizimli tarzda yo'lga qo'yish hamda ta'limni samarali isloh etishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Raqamli" atamasi birinchi marta 1956-yilda Dortmund konferensiyasida Jon Makkarti va uning hamkasblari Marvin Li Minskiy, Nataniel Rochester, Klod Shennonlar tomonidan taklif etilgan. Atama muallifi sifatida Jon Makkarti e'tirof etilgan [2].

Har qanday raqamli texnologiyalarga asoslangan dasturiy mahsulotni ishlab chiqishda faqat axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoki dasturlash mutaxassislari ishtiroki yetarli emas. Dasturiy mahsulot qaysi sohaga tegishli bo'lsa, o'sha soha mutaxassislari jalb qilinishi zarur.

U. Qodirov: "Raqamli texnologiyalar faqat kompyuter texnologiyalari bilan bog'liq degan xulosaga olib kelmasligi kerak. Aksincha, bu – raqamli tibbiyot, muhandislik va sanoat sohalaridan tortib psixologiyaga qadar



ko'plab fanlarga bevosita bog'liq bo'lgan hamda ularning barchasi ehtiyojlariga mos tuzilgan sohadan dalolat beradi", deya ta'kidlaydi [3].

Aynan kitob mutolaasi madaniyatini yuksaltirishda ham raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish ta'lim-tarbiya samaradorligini yanada oshirishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ilmiy maqolalar, statistika ma'lumotlari, raqamli platformalar faoliyati bo'yicha ochiq manbalar va soha mutaxassisleri fikrlari asos sifatida olindi. Olingan ma'lumotlar kontent tahlili, taqqoslama tahlil hamda sifat va miqdoriy baholash usullari orqali tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish uchun istiqbolli dasturlar va loyihalarni yaratish – masalan, raqamli texnologiyalarga asoslangan kitobxonlik bo'yicha veb-saytlar, mobil ilovalar, sun'iy intellekt kutubxonalarini ishlab chiqish – davr talabi hisoblanadi.

Yosh avlodni kitoblar orqali tarbiyalash va ularni mutolaaga jalb qilish har doim dolzarb masala bo'lib kelgan. Mamlakatimizda raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, kutubxonalar faoliyatini raqamlashtirish borasida M. A. Raxmatullaev, U. F. Karimov, A. Sh. Muhamadiev, S. S. Qosimov, B. I. Ganieva va boshqa bir qator olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijiy olimlardan Aalberg Trond, J. Waters, Uilyam Arms, Roy Tennant, Ya. L. Shrayberg kabilar o'z tadqiqotlarida "raqamli kutubxona", "elektron kutubxona", "virtual kutubxona" kabi tushunchalarga turlicha ta'rif bergan.

Raqamli kutubxonalar shakllanishining asosi bo'lgan elektron kitoblarning yaratilishi va ularning asoschilari haqida ayrim ma'lumotlar quyidagicha: har qanday raqamli kutubxona, avvalo, elektron kitoblar jamlanmasidan tashkil topadi.

Ko'plab xorijiy manbalarda elektron kitoblarning ilk namunalarini yaratish g'oyasi amerikalik yozuvchi va impresario [4] faoliyati bilan shug'ullangan Bob Braun tomonidan ilgari surilgan [5]. Uning 1930-yilda yozilgan *The Readers* nomli kitobida elektron kitoblarga oid ilk g'oyalar keltirilgan.

Bob Braun tomonidan ilgari surilgan bu g'oyalar oradan 40 yil o'tib, real shaklga keldi.

1971-yilda Maykl Stern Xart tomonidan amalga oshirilgan "Guttenberg" loyihasi [6] doirasida AQSHning Mustaqillik to'g'risidagi deklaratsiyasi elektron shaklga o'tkazilgan. Bu holat dunyodagi ilk elektron kitob sifatida e'tirof etiladi. Biroq Xart kashfiyotidan oldin ham bir qator izlanishlar mavjud bo'lgan.

Xususan, 1945-yilda Vannevar Bush "Memex" nomli gipotetik qurilmani taqdim etgan. Ushbu qurilma yozuv stoli ustiga o'rnatilgan bo'lib, inson tomonidan yaratilgan yozma manbalarni saqlash imkoniyatiga ega edi. Biroq bu loyiha keng ommalashmagan. Shunga qaramay, undagi varaqlash, izoh yozish va havolalar kiritish funksiyalari keyinchalik elektron o'quv qurilmalarida joriy etilgan [7].

1949-yilda Ispaniyada ispan tili o'qituvchisi Anxela Ruis Robles "Mexanik ensiklopediya" nomli o'quv qurilmasini ixtiro qilgan. Qurilmada u gipermatnning dastlabki ko'rinishini qo'llagan va tasvirni kattalashtirib ko'rish imkoniyati ham mavjud bo'lgan. Bu qurilma kelajakda talabalar uchun qog'oz darsliklarni almashtirishi mumkinligi bashorat qilingan. Afsuski, moliyaviy imkoniyatlar yetishmagani sababli loyiha to'xtab qolgan [8].

1985-yilda "Voyager" kompaniyasi tomonidan CD-ROM diskarga elektron kitoblar yuklash bo'yicha tajribalar boshlangan. Natijada 1993-yilda Maykl Kraytonning *Yura davri dunyosi* nomli asarining 50 ta nusxasi elektron shaklda diskka yozilgan. Bu diskarga yozilgan kitoblar ilk ko'chma raqamli kitoblar sifatida tilga olinadi [5].

1990-yilda Djon Galuskza PC-book (Serendipity Systems) qurilmasi uchun elektron kitoblarni sahifalab ko'rsata oladigan va xatcho'plarni belgilash imkonini beradigan dasturiy ta'minot yaratgan [9].

1993-yilda "BiblioBytes" kompaniyasi birinchi bo'lib internet tarmog'ida elektron kitoblar savdosini amalga oshirish uchun yaratilgan veb-saytni ishga tushirdi. Shuningdek, ushbu kompaniya internet tarmog'ida savdo tizimini yo'lga qo'ygan ilk kompaniya sifatida ham e'tirof etiladi [10]. Aynan shu yili "Apple Newton" kompaniyasi dunyoda birinchi bo'lib elektron kitoblarni mutolaa qilish mumkin bo'lgan "Newton" (shaxsiy raqamli yordamchi) qurilmasini yaratdi [8].

1994-yili rossiyalik dasturchi Maksim Yevgenevich Moshkov tomonidan "Lib.ru" internet elektron kutubxonasi ishlab chiqildi. 2006-yilga kelib ushbu kutubxonada 30 mingta raqamli kitob to'plandi [13].

1998-yilda ro'y bergan to'rtta muhim hodisa elektron kitoblarning dunyo bo'ylab keng tarqalishiga ta'sir ko'rsatdi:

Elektron kitoblarni o'qish uchun "Rocket eBook" va "SoftBook" maxsus qurilmalari ishlab chiqildi.

Tayyorlangan elektron kitoblarga ilk bor ISBN raqamlari berildi.



AQSH kutubxonalarining veb-saytlari orqali keng ommaga elektron kitoblar bepul yetkazib berila boshlandi. Larry Page va Sergey Brin tomonidan "Google" kompaniyasiga asos solindi [5].

Shu yili "NetLibrary" kompaniyasi kutubxonalarga elektron kitoblarni tayyorlash va yetkazib berish xizmatini taklif qila boshladi [12]. "NuroMedia" kompaniyasi esa elektron kitoblarni o'qish uchun ilk portativ "Rocket" qurilmasini ishlab chiqdi [13]. Shuningdek, "SoftBook" nomli dasturiy ilova yaratilgan bo'lib, u charmdan tayyorlangan qoplama va telefon katalogi bo'yicha buyurtma berish funksiyasiga ega edi [14]. "Rocket" qurilmasi kitob o'lchamiga ega bo'lib, foydalanuvchi uni o'zi bilan olib yurishi mumkin edi. Unga 10 tagacha roman yuklash mumkin bo'lgan, elektr quvvati esa 33 soatgacha yetgan [8].

1999-yilda "Simon & Schuster iBooks" nashriyoti tashkil etildi va birinchi bo'lib kitoblarni bosma va elektron shaklda tayyorlashga ixtisoslashgan nashriyotga aylandi. 2001-yilga kelib, deyarli barcha yirik nashriyotlar elektron kitoblar ishlab chiqarishni boshladi [15].

2000-yilda raqamli texnologiyalar bozorida shaxsiy kompyuterlar uchun "Microsoft Reader" dasturiy ta'minoti sotuvga chiqarildi [8]. Ushbu dasturda yorug'likni sozlash, lug'atdan foydalanish, masshtabni o'zgartirish, annotatsiya kiritish kabi funksiyalar mavjud bo'lib, kutubxonalarga qulayliklar yaratdi. Shu yili Stiven King tomonidan yozilgan *Riding the Bullet* asarining elektron nusxasi "Glassbook" elektron kutubxona veb-sayti orqali 24 soat ichida 400 ming marta sotildi [16]. "Gemstar" kompaniyasi esa elektron kitoblarni o'qish uchun yangi RCA, REB 1100 va REB 1200 portativ qurilmalarini ishlab chiqardi [17].

2002-yilda elektron kitoblarni o'qishda yanada qulayliklar yaratildi. "Palm Treo" nomli ixcham cho'ntak smartfonlari raqamli texnologiyalar bozorida paydo bo'ldi. Ushbu qurilmalar orqali kontentni havo orqali yuklab olish va shaxsiy kompyuter bilan sinxronlashtirish mumkin bo'ldi. Shu yili "Microsoft" kompaniyasi "MS Reader" dasturiy ta'minoti asosida elektron kitoblarni portret rejimida o'qishga mo'ljallangan planshetlarni ishlab chiqara boshladi [8].

2004-yilda Yaponiyada "Sony Librie Reader" nomli elektron kitob o'quv qurilmasi ishlab chiqarildi. 2004–2006-yillar oralig'ida Sony reader qurilmasining birinchi va ikkinchi avlodlari ishlab chiqarildi. Qurilmalarda turli o'lchamdagi shriftlar, 64 MBgacha bo'lgan ichki xotira, xotira kartalari va USB orqali ma'lumot uzatish imkoniyatlari mavjud edi [8].

2007-yilda "Amazon" kompaniyasi birinchi "Kindle eBook Reader" [18] qurilmasini, "Apple" esa "iPod Touch/iPhone" qurilmalarini ishlab chiqardi [19]. "Kindle" qurilmasida simsiz ma'lumot yuklash, internetga kirish, eslatma kiritish imkonini beruvchi QWERTY klaviaturasi mavjud edi. Bu qurilma bugungi kunga qadar eng ommabop elektron kitob o'quv qurilmasi hisoblanadi. Keyingi yillarda quyidagi takomillashtirilgan modellar ishlab chiqildi:

- *Kindle Fire (2011)*: to'liq rangli 7 dyuymli ekran, Wi-Fi, 8 GB ichki xotira va tezkor xotira kartasi bilan;
- *Kindle Voyage (2014 Premium Ereader)*: varaqlash funksiyasi;
- *Kindle Oasis (2016)*: oldingi modellarning barcha funksiyalarini o'zida jamlagan, ammo yanada yupqaroq va engilroq dizaynga ega bo'lgan.

2009-yilda "Barnes & Noble" kompaniyasi "Nook" elektron kitob qurilmasini taqdim etdi. Shu yili "Sony" kompaniyasi "Overdrive" raqamli tarmog'i orqali kutubxonalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Bu orqali kutubxonalar o'z hududlarida joylashgan kutubxonalardan elektron kitoblarni erkin va tez yuklab olish imkoniyatiga ega bo'ldilar [5].

2010-yil elektron kitoblarning mashhurligi keskin oshgan yil sifatida e'tirof etiladi. Bunga sabab, "Apple" kompaniyasi "iBooks" bilan hamkorlikda "iPad" qurilmasini ishlab chiqdi. "iBookstore" onlayn do'koni orqali bir oy ichida 500 mingdan ortiq elektron kitoblar sotildi. Shu yili "Google" ham elektron kitoblar do'konini ishga tushirdi [5].

Elektron kitoblarning ixtiro etilishi, ularni mutolaa etish uchun ishlab chiqilgan qurilmalar va dasturiy ta'minotlarning takomillashuvi raqamli kutubxonalar shakllanishiga turtki bo'ldi.

Turli soha vakillari tomonidan raqamli kutubxonalar turlicha tasavvur qilinadi. Bugungi kunda raqamli kutubxonalar haqidagi turli xil tavsiflar mavjud. Raqamli kutubxonalar federatsiyasi (Digital Library Federation – DLF) bu tushunchaga quyidagi ta'rifni beradi: "Raqamli kutubxonalar – resurslarni taqdim etuvchi, intellektual mulkka egalikni ta'minlovchi, raqamli kolleksiyalarni tashkil etish, yaratish, uzoq muddat davomida saqlash va yetkazib berishni ta'minlovchi strukturadir" [20].

Uilyam Arms o'zining "Raqamli kutubxona" nomli monografiyasida quyidagicha ta'rif beradi: "Raqamli kutubxona – bu boshqariladigan axborot to'plami, unga tegishli xizmatlar va raqamli formatda saqlanadigan axborotlarni tarmoq orqali taqdim etadi" [21].

Roy Tennant esa "raqamli kutubxona" tushunchasini quyidagicha izohlaydi: "Raqamli kutubxona – bu raqamli mahsulotlar va xizmatlardan tashkil topgan, ushbu mahsulotlar saqlanadigan, qayta ishlanadigan va raqamli tarmoqlar orqali uzatiladigan kutubxona bo'lib, kompyuter tarmoqlari orqali raqamli xizmatlarni raqamli ko'rinishda taqdim etadi" [22].



Raqamli kutubxonalar g'oyasi yangilik bo'lmagan bo'lsa-da, 1990-yilgacha ular amalda mavjud emas edi. Ilk raqamli kutubxonalar AQSHda tashkil etilgan bo'lib, ularga "Aleksandriya" va "Initsiativa" raqamli kutubxonalari misol bo'la oladi. Tez orada raqamli kutubxonalarni yaratish bo'yicha g'oyalar madaniy qadriyatlarni saqlash va yetkazishning yangi, samaraliroq shakli sifatida Yevropaga tarqala boshladi [20].

Yevropada ilk raqamli kutubxonalarni yaratish bo'yicha bir qator loyihalar amalga oshirildi. Jumladan:

e-Lib (The Electronic Libraries Programme) [23] – Elektron kutubxonalar dasturi bo'lib, oliy ta'limni rivojlantirish va raqamli kutubxonalar modelini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Loyihaning asosiy maqsadi gibrid kutubxonalar orqali kengaytirilgan qidiruv tizimlarini joriy qilish, raqamli resurslarni saqlash va ulardan samarali foydalanishni ta'minlashdan iborat edi.

Gallica (Fransiya) [24] – Fransiya milliy kutubxonasi tomonidan De l'Homme muzeyi va Pera Loti uyi bilan hamkorlikda yaratilgan internet-server bo'lib, onlayn qidiruv tizimini sinovdan o'tkazish maqsadida tashkil etilgan.

Global-Info: German Digital Libraries Program (Germaniya) [25] – Nemis raqamli kutubxonalarni yaratish dasturi bo'lib, 1996–2000-yillarga mo'ljallangan axborot infrastrukturasi kiritilgan.

BIBSYS raqamli kutubxonasi (Norvegiya) [26] – Ushbu loyiha 1998-yildan 3 yil davom etgan bo'lib, Norvegiya milliy raqamli kutubxonasini barpo etishga qaratilgan. Loyiha doirasida oliy ta'lim foydalanuvchilarini yangi va mavjud xizmatlar bilan ta'minlash, axborot resurslarini integratsiyalash orqali keng ommaga yetkazish maqsadi qo'yilgan.

IRBIS – Rossiyaning integratsiyalashgan axborot-kutubxona tizimi bo'lib, an'anaviy kutubxona faoliyatini avtomatlashtirish orqali o'rta va kichik kutubxonalarda adabiyotlardan foydalanish va ularni tarqatish samaradorligini oshirishga qaratilgan [27].

O'zbekistonda esa 1990-yillarning oxiridan boshlab kutubxonalar faoliyatida Rossiyada ishlab chiqilgan IRBIS tizimi "AKAT" (Avtomatlashtirilgan kutubxona axborot tizimi) dasturiy ta'minoti sifatida tatbiq etila boshlandi. Ushbu integratsiyalashgan tizim ko'plab AKM (Avtomatlashtirilgan kutubxona markazi), ARM (Axborot resurs markazi) va boshqa yirik kutubxonalarda keng qo'llanildi [28].

IRBIS tizimi O'zbekistonda kutubxonachilik sohasining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Mamlakat kutubxonachilari ushbu tizim orqali kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish, xalqaro talablar asosida elektron bibliografik resurslar yaratish texnologiyalarini o'zlashtirdilar [29].

O'zbekistonda yaratilgan dastlabki "Namunaviy avtomatlashtirilgan kutubxona" (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasi huzurida) aynan IRBIS tizimi asosida tashkil etilgan. Bundan tashqari, respublikadagi bir qator yirik kutubxonalarda elektron kutubxona bazasi ham ushbu tizim asosida shakllantirilgan [29].

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasi 1994-yildan boshlab yangi texnologiyalar bilan jihozlandi: mahalliy kompyuter tarmog'i o'rnatildi; 1995-yildan boshlab yangi olingan adabiyotlarning elektron katalogi shakllana boshladi; 1998-yilda "IRBIS" avtomatlashtirilgan kutubxona dasturi joriy etildi; 2000-yilda esa Avtomatlashtirilgan kutubxona modeli va o'quv markazi ishga tushdi [30].

Dastlabki "Elektron katalog" 1999-yilda Toshkent axborot texnologiyalari universitetida TESIS dasturi doirasida IRBIS tizimidan foydalangan holda shakllantirildi. Aynan shu davrda mamlakatimizdagi 10 ta kutubxona ham mazkur tizim asosida o'z elektron kataloglarini yaratishga kirishdi. Elektron kataloglashtirish bilan birga, milliy avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimini yaratish bo'yicha dastlabki urinishlar amalga oshirildi [29].

Masalan, O'zbekiston Milliy universitetida, ATM "INFO-FAN"da, Toshkent axborot texnologiyalari universitetida, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutida, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida, Toshkent viloyatidagi "Turon" kutubxonasida va boshqa bir qator tashkilotlarda avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimini yaratishga kirishilgan [29].

2006-yilda Ziyonet tarmog'i Resurs markazi portalining birinchi talqini ishlab chiqildi va www.ziyonet.uz manzili orqali ishga tushirildi. Ushbu portal O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 28-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-191-sonli qaroriga muvofiq tashkil etilgan [31].

"Ziyonet" jamoat ta'lim axborot tarmog'ini yaratishdan asosiy maqsad – ta'lim oluvchilar uchun ta'lim olish jarayonida keng ko'lami axborot-kommunikatsiya xizmatlarini joriy etishdan iborat bo'lgan.

2007-yili Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan "Axborot, kutubxonachilik va nashriyot ishiga oid standartlar tizimi" (SIBID)ni O'zbekiston kutubxonachilik ishiga tatbiq etish tashabbusi ilgari surildi. Ushbu tashabbusni "Aloqa va axborotlashtirish agentligi" qo'llab-quvvatladi va Respublika Axborot-kutubxona markazining sa'y-harakati bilan kutubxonachilik sohasiga oid standartlar tizimining birinchi talqini ishlab chiqildi. Bu esa nazariy jihatdan kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beruvchi dasturiy vositalarni yaratish uchun asos bo'ldi [29].



2017-yilda Toshkent axborot texnologiyalari universitetining bir guruh professor-o'qituvchilari va doktorantlari tomonidan axborot-kutubxona muassasalarining avtomatlashtirilgan tizimining yangi versiyasi – "ARMAT++" ishlab chiqildi. Mazkur tizim "Ta'limda elektron ta'limni joriy etish markazi" serveriga joylashtirilib, respublikadagi oliy o'quv yurtlarining axborot-resurs markazlaridan kirish imkoniyati yaratildi [32].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-son'li qaroriga muvofiq, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida "Elektron kutubxona" (Unilibrary.uz) platformasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Ushbu platforma oliy ta'lim tizimidagi raqamlashtirish jarayonining ajralmas bo'lagi sifatida respublikadagi barcha talabalar, professor-o'qituvchilar, xodimlar hamda keng jamoatchilik uchun zamonaviy va sifatli kutubxona xizmatidan bepul foydalanish imkonini yaratdi [33].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-noyabrda "Yoshlar uchun ming kitob" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-380-son² qaroriga muvofiq, Yoshlar ishlari agentligi va Xalq banki hamkorligida "Mutolaa" – kitoblarning elektron, audio hamda video formatdagi tizimli platformasi yaratildi. Ushbu platforma o'zbek tilidagi 1000 dan ortiq o'zbek va xorijiy kitoblarni o'z ichiga olgan bo'lib, ularning yarmidan ko'pi audio versiyasiga ega. Matnlar professional dublyaj aktyorlari tomonidan o'qilgan. Bugungi kunga kelib ushbu ilova foydalanuvchilarining soni 500 mingdan oshgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, yuqorida bayon etilgan elektron kitoblarning yaratilishi va ularni mutolaa qilish uchun ishlab chiqilgan raqamli qurilmalar takomillashuvi raqamli kutubxonalar va axborot-kutubxona faoliyatining rivojlanishiga kuchli turtki bo'ldi. Bu esa, aholining, ayniqsa yoshlarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshirib, mutolaa madaniyatining yuksalishiga keng imkoniyatlar ochib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январда Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномаси. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-2501-2020>.
2. У.Д. Қодиров, Ж.М. Қаршиев. Таълим жараёнида сунъий интеллектдан фойдаланишнинг ўзига хос жиҳатлари // Современное образование (Узбекистан). 2021. №4 (101). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-zharayonida-sunniy-intellekt-dan-foydalanishning-ziga-hos-zhi-atlari>
3. Баҳодир Карим. Янги фикр – янги йўл ёки маърифатнинг муаззам йўли ҳақида ўйлар // <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/32-publitsistika?download=13487>: buyuk-o-zbek-yo-li-2021.
4. An impresario (from Italian impresa, "an enterprise or undertaking") is a person who organizes and often finances concerts, plays, or operas, performing a role in stage arts that is similar to that of a film or television producer. <https://en.wikipedia.org/wiki/Impresario>
5. The History of eBooks from 1930's "Readies" to Today's GPO eBook Services <https://govbooktalk.gpo.gov/2014/03/10/the-history-of-ebooks-from-1930s-readies-to-todays-gpo-ebook-services/>
6. David Guion. A brief history of the internet and digital libraries // https://allpurp.oseguru.com/2021/06/a-brief-history-of-the-internet-and-digital-libraries/#google_vignette
7. Leonardo Candela, Donatella Castelli, Pasquale Pagano. History, Evolution, and Impact of Digital Libraries // www.igi-global.com/chapter/history-evolution-impact-digital-libraries/47467
8. When Was EBook Invented (History of EBook) <https://apexsolutionsltd.com/publishing-glossary/when-was-ebook-invented-history-of-ebook/>
9. Devrim Akgunduz. Fen ve Matematik Eğitiminde Teknolojik Yaklaşımlar. Ankara-2019 <https://www.researchgate.net/publication/337440122>
10. Bill Kasdorf. The Past 25 Years of E-books // <https://www.publishersweekly.com/pw/by-topic/digital/content-and-e-books/article/89005-the-past-25-years-of-e-books.html>
11. Александр Шнайдер. Краткая история электронных книг // <https://gercen.blogs.donlib.ru/2021/09/06/6102/>
12. Scott Doan. Netlibrary https://www.researchgate.net/publication/233140424_Netlibrary
13. N.H. Senzai. eBook Evolution Continues. <http://nahasen.blogspot.com/2010/10/ebook-evolution-continues.html>
14. SoftBook. <https://en.wikipedia.org/wiki/SoftBook>
15. Olivia Smith. A Brief History of eBooks. <https://bookscooter.com/blog/a-brief-history-of-ebooks/>
16. Marie Lebert - The ebook is 40 (1971-2011) 67 page from 102 <https://www.gutenberg.org/files/36985/36985-pdf.pdf>
17. Richard Guthrie. Power Over Publishing: organised publishing's strategic suppression of the trade e-book. <https://irep.ntu.ac.uk/id/eprint/40961/1/10183445.pdf>
18. Amazon Kindle devices. https://en.wikipedia.org/wiki/Amazon_Kindle_devices
19. By staff reporter. The History of Apple From iPod to iPhone. <https://www.techtimes.com/articles/246029/20191113/the-history-of-apple-from-ipod-to-iphone.htm>
20. Б.И. Ганиева. Рақамли кутубхоналарнинг ривожланиши ва унинг олий таълим муассасалари рейтингини

1 <https://lex.uz/docs/-5793261>

2 <https://www.lex.uz/docs/-6678312>



оширишга таъсири. "Экономика и социум" №10(101)-1 2022

21. William Arms, Digital Libraries. Chapter 1, background. Online edition; available from <http://www.cs.cornell.edu/wya/DigLib/new/Chapter1.html>. Accessed 19 March 2004.
22. 22. Roy Tennant, "Digital v. Electronic v. Virtual Libraries," Last updated on 5 August 1999; available from <http://sunsite.berkeley.edu/mydefinitions.html>. Accessed 22 March 2004.
23. 23. UKOLN, "eLib: The Electronic Libraries Programme," 13 January 2005; available from <http://www.ukoln.ac.uk/services/elib>
24. 24. Gallica, available from <http://gallica.bnf.fr/>.
25. 25. DomainSpa, LLC, "Global-info.org," available from <http://www.global-info.org/>.
26. 26. "BDB: BIBSYS Digital Library," available from <http://www.bibsys.no/BDB/eng/>.
27. 27. Бродовский А.И. Интегрированная библиотечно-информационная система ИРБИС-современное средство для автоматизации малых и средних библиотек <https://www.gpntb.ru/win/inter-events/crimea98/doc1/doc33>.
28. 28. Karimov U.F. va boshq. Korporativ axborot-resurs markazlarining avtomatlashtirilgan tizimi (KARMAT): Uslubiy qo'll. / U.F. Karimov, M.A. Rahmatullayev, A.Sh. Muxamadiyev, J. Atajanov. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. - 35 b.
29. 29. Korporativ axborot-resurs markazlarining avtomatlashtirilgan tizimi (KARMAT-M): [Uslubiy qo'llanma] / M.A. Rahmatullayev va boshq.; Mas'ul muhar. A.O. Umarov. — Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.- 64 b.
30. 30. Kutubxonahunoslik ishi tarixi va Nazariyasi: Nosirov, O'. Davlatov, S [Metodik qo'llanma].-Toshkent: Donishmand ziyosi.-2011.-286 b.
31. 31. <https://uz.wikipedia.org/wiki/ZiyoNet>
32. 32. Каримов У.Ф., Рахматуллаев М.А., Муминов Б, Каримов Ў. Ахборот-кутубхона муассасалари учун дастурий таъминот (ARMAT++). Фойдаланувчилар учун йўриқнома. Тошкент-2017
33. 33. Мамарасулов, Махмуд Олий таълимда ахборот-кутубхона хизматини рақамлаштириш: unilibrary.uz электрон кутубхона платформаси [Матн]: методик қўлланма / М.Мамарасулов, А.Алиев, И.Мамажонов. — Т.: "Yetakchi nashriyoti", 2024. — 32 б.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>